

BOSHLANG'ICH SINFLARDA MASALALAR YECHISH MALAKALARINI HOSIL QILISH**Samatova Mavludaxon Xusanovna***Andijon viloyati Izboskan tumani**12-umumiy o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatish haqida, Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga o'rgatish haqida, Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanishi haqida so'z boradi.*

Kalit so'zlar: *matematika, masala yechish, o'quvchi, o'qituvchi, tenglamalar, tushuncha, talabchanlik, predmet, misol.*

Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzib yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. Masalalarni tenglamalar tuzish bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum sonlarini topishga doir sodda masalalar yechishga o'rgatish va misollar bilan birgalikda matnli masalalarni tenglamalar yordamida yechib o'quvchilarning bilimlarini mustahkamlash muhim vazifa hisoblanadi. Mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga zamin yaratib, o'quvchilarni fikrlash dunyoqarashini kengaytirib, ularni zehni va hozirjavoblik fazilatini tarbiyalash bosh maqsaddir.

Matematika darsligi o'quvchilarni ba'zi xil masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishga o'rgatishni nazarda tutadi. O'quvchilar masalalarni tenglamalar tuzish bilan yechishni o'rganib olishlari uchun ular masaladagi berilgan va izlanayotgan miqdorlarni ajratib olishi kerak bo'ladi. Tenglamalarni tuzish yordamida sodda masalalarni yechish ikkinchi sinfdan boshlanadi. Ikkinchi sinfdan tenglamalar tuzish usuli bilan qo'shish, ayirish, ko'paytirish va bo'lish amallarining noma'lum komponentlarini topishga doir sodda masalalar yechiladi.

Matematik masalalar o'quvchilarga matematik tushunchalarni to'g'ri shakllantirishga, uni o'rab turgan muhitni chuqurroq anglashga, shu bilan birga masalalar echishga bola tafakkurining rivojlanishiga yordam beradi. Eng asosiylaridan yana biri masalalar echish orqali o'quvchi to'rtala arifmetik amal va ularning xossalari puxta o'rganadi.

Masalalarni yechishda predmetga bo'lgan qiziqish rivojlanadi, umuman mustaqillik, erkinlik, talabchanlik, mehnatsevarlik, maqsadga intilishlik rivojlanadi. Bolalar masala tuzilishi bilan ikkinchi yoki uchinchi mashg'ulotda tanishadilar. Ular masalada shart va savol borligini bilib olishadi, masala shartida kamida ikkita son bo'lishligi alohida ta'kidlanadi. Masala ustida ishlah uning mazmunini o'zlashtirishdan boshlanadi. Masala mazmunini yaxshi tushunish uchun o'quvchilarni har biriga uning matnini eshittiribgina qolmay, balki uni mustaqil o'qib chiqishlari ham kerak.

Agar masala sharti bosh qotiradigan bo'lsa o'quvchilarga masala mazmunini mustaqil o'ylab ko'rishlari uchun bir-uch minut vaqt berish maqsadiga muvofiqdir. Boshlang'ich sinflar matematika darslarida arifmetik amallar xossalari va usullarini o'rganishda o'ziga xos bo'lgan

qonunylarni ko'paytirish amaliga teskari amal sifatida muvofiqlikda o'rganilishini talab etsa, ikkinchi tomondan maxsus hollarni tahlil etishda amallardagi xos xususiyatlar bilan taqqoslash muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa o'quvchilarni ikrlashlarini o'stirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Boshlang'ich sinflarda matematikadan masalalar yechish o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish va rivojlantirishga, o'z fikrlarini mustaqil bayon qila olishga, egallagan bilimlarini ijtimoiy faoliyatlarda qo'llashga xizmat qiladi.

Har bir masala berilgan (ma'lum) va izlanayotgan (noma'lum) sonlarni o'z ichiga oladi. Masaladagi sonlar, to'plamlar sonini yoki miqdorlarning qiymatini xarakterlaydi, munosabatlarni ifodalaydi yoki topilishi kerak bo'lgan noaniq sonlar bo'ladi.

Masala shartida berilgan sonlar orasidagi va berilgan sonlar bilan izlanayotgan sonlar orasidagi bog'lanish ko'rsatiladi; bu bog'lanishlar tegishli arifmetik amallarni tanlashni belgilab beradi. Savol esa qaysi son izlanayotgan son ekanini bildiradi.

Yechilishi uchun bir nechta o'zaro bog'liq amallarni bajarish talab qilinadigan masalalar murakkab masalalar deyiladi.

Sodda masalalar kabi murakkab masalalar ham bilimlarni o'zlashtirishga, olingan bilimlarni mustahkamlash va mukammallashtirishga xizmat qiladi.

Masala yechish ketma-ketligida quyidagilarni amalga oshirish lozim.

1. Masalani tinglashni o'rganish va uni mustaqil o'qiy olish.
2. Masalani, dastlabki tahlil qilish, ma'lumni noma'lumdan, muhimli nomuhimdan ajratish, berilgan bilan izlanayotganlar orasida bog'lanish o'rnatish.
3. Masalani qisqa yozish malakasi.
4. Murakkab masala tahlilini amalga oshirish, so'ngra yechish rejasini tuzish.
5. Yechimni bajarish, uni o'qituvchi talabiga mos qilib daftarga yoki doskaga yozib masala savoliga javob berish.
6. Masala yechimini tekshira olish.

Masalaning mazmunini o'zlashtirish uchun o'quvchilar bilan quyidagi usulni tajriba qilib ko'rish mumkin. O'qituvchi masalaning nomerini aytadi va o'quvchilarga masalaning shartini ovoz chiqarmasdan o'qib chiqishni shartini tushunib olishni buyuradi. Bu usul o'quvchilarni metoddan mustaqil foydalanishga o'rgatadi. Agar o'quvchi masalaning shartini masalalar to'plamidan mustaqil o'qisa, masalani ichida ikki uch marta o'qib chiqishni so'ngra kitobni yopib qo'yib, masala shartini takrorlashni buyuradi. Bunda o'qituvchi masalaning son ma'lumotini emas, balki asosiy mazmunini esda tutishni tavsiya qiladi. O'quvchilar shartlarni o'qishga va uni ichlarida takrorlashga va diqqat e'tibor berishlari uchun o'qituvchi masalaning shartini kitobga qaramasdan takrorlash kerakligi to'g'risida ularni ogohlantiradi. Masalaning shartini eslab qolish maqsadida uning tekstni o'qish o'quvchini masalaning mazmunini chuqurroq tushunib olishga majbur qiladi. Bu esa o'z navbatida masalani to'g'ri yechishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Jumayev M.E. Matematika o'qitish metodikasi (OO'Y uchun darslik) Toshkent. . "Turon-Iqbol" 2016 yil .

2. Jumayev M.E, Tadjiyeva Z.G`. Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasi. (OO`Y uchun darslik.) Toshkent. “Fan va texnologiyai” 2005 yil.

3. Jumayev M.E, Boshlang`ich sinflarda matematika o`qitish metodikasidan praktikum. (O O`Y uchun) Toshkent. “O`qituvchi” 2004 yil.